

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TEMIR YO'L UMUMIY KURSI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Temir yo'l umumiy kursi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Temir yo'l umumiy kursi

1. Temir yo'l transporti: rivojlanish tarixi, inshoot va qurilmalar hamda yo'llarni toifalash;
2. Gabaritlar. Yo'l, energota'minot, lokomotiv va vagon xo'jaliklarining faoliyati;
3. Avtomatika, telemexanika va aloqa qurilmalari;
4. Ajratish punktlarining tasniflanishi;
5. Poyezdlar harakatini tashkil etishning umumiy tushunchalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Temir yo'l transporti: rivojlanish tarixi, inshoot va qurilmalar hamda yo'llarni toifalash	Temir yo'l transportining rivojlanish tarixini tushuntira olishi; stansiya va yo'l inshootlari hamda qurilmalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari bilan tanishtira olishi; yo'llarni toifalash mezonlarini ajratishni bila olishi; turli yo'l turlari va ularning xususiyatlarini solishtirishni bila olishi; transport tizimlari rivojiga tabiiy va texnik jarayonlarning ta'sirini tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
2	Gabaritlar. Yo'l, energota'minot, lokomotiv va vagon xo'jaliklarining faoliyati.	Lokomotiv va vagonlarning asosiy turlari, gabarit va ishlash prinsiplari, yo'l va energota'minot tizimlarining tuzilishi va faoliyatini tahlil qila olishi; transport jarayonlaridagi energiya oqimlarini solishtirish, tizimlararo bog'liqlik va inson hayoti hamda iqtisodiyot uchun ahamiyatini tushuntirish; texnologik jarayonlarni tartibga solish va monitoring qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
3	Avtomatika, telemexanika va aloqa qurilmalari.	Avtomatika, telemexanika va aloqa qurilmalarini aniqlash va ishlash prinsiplari bilan tanishtira olishi; stansiya va yo'l qurilmalarini funksional guruhlariga ajratish, qurilmalararo bog'liqlik va ularning transport jarayonidagi o'rni, shuningdek, qurilmalarni taqqoslash va turli tizimlarni solishtira olishi; tizimlar xavfsizligi va samaradorligini tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	27,5 %	11 ta
4	Ajratish punktlarining tasniflanishi.	Ajratish punktlarining turlari va ularning texnologik funksiyalarini aniqlash, stansiya elementlarini tasniflash va harakat jarayonidagi rolini tushuntira olishi; transport ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qila olishi; tizim ichidagi jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsata olishi; boshqaruv va rejalashtirish jarayonlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta

5	Poyezdlar harakatini tashkil etishning umumiy tushunchalari.	Poyezdlar harakatini tashkil etish va boshqarishning asosiy prinsiplari, harakat jarayonidagi elementlar va ularning o'zaro ta'sirini tahlil qila olishi; stansiya va yo'l tizimlarida xavfsizlik va samaradorlikni ta'minlash, transport jarayonlarini monitoring qilish va optimallashtirishni bila olishi; tizimlararo o'zaro ta'sirlarni tushuntirish va real misollar bilan izohlay olish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	17,5 %	7 ta
---	--	--	--------	------

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. S.Xusanov., A.Shorustamov. Temir yo'llar umumiy kursi. Toshkent, 2007 y.
2. O'zbekiston Respublikasi temir yo'llaridan texnikaviy foydalanish qoidalari. Toshkent 2012 y.
3. M.Rasulov, G.Mirzayeva. Temir yo'l transportida harakatni tashkil qilish va boshqarish. Toshkent, 2007 y.
4. A.Shorustamov, R.Abdullayev. Temir yo'l bekatlari va tugunlari. Toshkent, 2007 y.